

**BUXORO VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
HUDUDIIY MARKAZI**

**UZLUKSIZ TA'LIMDA FILOLOGIYA  
FANLARINI O'QITISHNING  
DOLZARB MASALALARI**

**Tillarni o'qitish  
metodikasi kafedrasini**

**19-Oktabr, 2021**

**Respublika onlayn  
ilmiy-amaliy  
konferensiyasi**

**[www.buxoromoi.uz](http://www.buxoromoi.uz)**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIM  
VAZIRLIGI**

**BUXORO VILOYATI XALQ TA’LIMI  
XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH HUDUDiy MARKAZI**

**“UZLUKSIZ TA’LIMDA FILOLOGIYA FANLARINI  
O‘QITISHNING DOLZARB MASALALARI”**

Respublika miqiyosidagi onlayn ilmiy-amaliy  
konferensiya materiallar to‘plami

2021-yil 19-oktabr

BUXORO – 2021

## KODLASH - TAFAKKUR -DEKODLASH JARAYONINING BOG'LIQLIGI XUSUSIDA

*Abuzalova M.Q. BuxDU professori, f.f.d.  
Fatullaeva K.R. Buxoro viloyat XTXQTMOHM  
ingliz tili o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada amaliy tilshunoslik bilan bog'liq bo'lgan psixolingvistika ya'ni nutq hosil qilish, nutqni qabul qilish, nutq faoliyatini o'rganish, nutqni idrok etish, tilni egallash kabi masalalar bilan shug'ullanishi to'g'risida fikr boradi.

**Kalit so'zlar:** kod, dekodlash, lingvistika, antroponimiya, evfemiologiya, metaforalogiya.

O'zbek tilshunosligi istiqbol davrida juda ko'p yutuqlarga erishdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbek lingvistikasining rang-barang sohalari rivoj topdi. Lingvopersonologiya, ya'ni tilning shaxs, jamiyat, madaniyat, urf-odat bilan munosabatini o'rganadigan amaliy tilshunoslik ravnaq topdi (antroponimiya, evfemiologiya, metaforalogiya...) . Bugungi kunda o'zbek tilining ham dunyo tillari qatoridan o'rin olishini maqsad qilib qo'ygan til korpusi ham rivoj topmoqdaki, bu quvonarli hol.

Amaliy tilshunoslik bilan bog'liq bo'lgan psixolingvistika ham nutq hosil qilish, nutqni qabul qilish, umuman, nutq faoliyatini o'rganadigan fan bo'lib, u nutqni idrok etish, tilni egallash kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Shuni ta'kidlash joizki, kishilar muloqotidagi barcha murakkab omillar hamda kodlash va dekodlash jarayonlari psixolingvistikaning tadqiqot predmetiga kiradi.

**Kod** – xabarni saqlash uchun shartli belgilar sistemasi. Dekodlash kodni asl belgilar tizimiga teskari o'zgartirish jarayoni, ya'ni asl xabar(keng ma'noda) ni qabul qilish demakdir. Ma'lum bir xabarni kodlash usullari rang-barang. Masalan, biz kirill alifbosidan foydalangan holda o'zbek tilidagi matnni yozamiz, ammo xuddi shu narsa lotin alifbosi yordamida ham amalga oshirilishi mumkin. Ba'zan kirilcha harflari bo'lmagan mobil telefon orqali "Салом, курсдошлар!" jumlasini "Salom, kursdoshlar!" tarzida lotin alifbosida xabar (SMS) yuborish bilan amalga oshiramiz. Bu ham kodlashning oddiy bir ko'rinishi sanaladi.

**Dekodlash** – bu kodni dastlabki belgilar tizimiga teskari o'zgartirish jarayoni bo'lib, asl xabarni qabul qilish hisoblanadi. Jumladan, S.Morzening mashhur alifbosida har bir harf uchun ma'lum kodlar ishlab chiqilganligi hammaga ma'lum, har bir harf qisqa signallar (nuqta) va uzun signallar (tire) ketma-ketligi bilan kodlangan bo'lib, harflar bir-biridan pauzalar bilan ajratilgan. Belgilar tizimi inson (tafakkuridan),



mohiyatdan hodisaga, umumiylikdan xususiylikka, imkoniyatdan voqelikka tomon siljiydi va reallashadi.

А •—	Л •—••	Ц —•—•
Б —•••	М — —	Ч — — — •
В •— —	Н — •	Ш — — — —
Г — — •	О — — — —	Щ — — • —
Д — •••	П •— — •	Ъ •— — • — •
Е •	Р •— •	Ы — • — —
Ж ••• —	С •••	Ь — ••• —
З — — ••	Т •• —	Э •• — ••
И ••	У •• —	Ю •• — —
К — • —	Ф •• — •	Я • — • —
Й • — — —	Х ••••	

### Semyuel Finli Briz Morze (1791–1872, AQSh ) alifbosi

Yuqorida keltirilgan misollardan substansial tilshunoslikda aniqlangan sodda gap([WP<sub>m</sub>]), qo'shma gap([WP<sub>m</sub>-WP<sub>m</sub>]), uyushgan gap([(E<sub>1</sub>-W<sub>2</sub>)-(E<sub>2</sub>-W<sub>2</sub>) P<sub>m</sub>]), so'z birikmasi( [W→W]), so'z-gap([W<sup>^</sup>]) hamda ([WG<sup>^</sup>)]– so'z shaklining umumiy lisoniy qoliplari **kod** xarakterida bo'lib, ma'lum bir shakl va mazmunning barqaror yaxlitligi sifatida yashaydi va xususiy hodisa sifatida nutqda reallashadi, ya'ni dekodlanadi deyish mumkin. Muloqotda yuzaga chiqadigan so'zlardan tortib qo'shma gaplargaacha bo'lgan nutqiy hosilalar inson tafakkurida mavjud kodlarning dekodlanishidir.

Bugungi kunda kompyuter texnologiyalarini tilshunoslikning ilmiy-nazariy, falsafiy muammolari: til va nutq, sistema va struktura, semiotika, sintagmatika va paradigmatika, tipologiya, lug'atshunoslik kabi muhim hamda murakkab masalalari bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda qo'llashning ijobiy tomonlariga tayangan holda korpus lingvistikasi sohasi yaratildi. Jumladan, mazkur sohada o'zbek tilidagi so'zlarni morfologik, semantik, sintaktik razmetkalash (Sotiboldining <Sotiboldi> [ot], [at. ot.], [shaxs n.], [qar. k.], [birl. s.]morfologik razmetka) va lingvistik modellashtirish usullarini ham lingvistik kodlashning ko'rinishlari sifatida baholash mumkin. Morfologik razmetka tizimiga xos bo'lganteglash jarayonlarini – so'zning morfologik xususiyatlarini ochishni dekodlash sifatida baholash mumkin. Demak, til muloqotga kirishuvchilar o'rtasida aloqa bog'lanishini ta'minlaydi. Uni bu maqsad uchun tanlangan so'zlar mohiyatiga ko'ra kodlashtirgan holda axborotni ma'lum qilayotgan kishi ham, bu mohiyatning kodini ochgan, ya'ni uning ma'nosini oshkor etgan va ana shu axborot asosida o'z xulq - atvorini o'zgartirgan holda bu axborotni qabul qilayotgan kishi ham tushunadi. Axborotni boshqa kishiga yo'llayotgan kishi

## MUNDARIJA

№	Muallif FISH	Maqola nomi	Sahifasi
<b>1-SHO‘BA: UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MUASSASALARIDA ONA TILI VA ADABIYOTI FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR</b>			
1.	M.Q. Abuzalova K.R. Fatullayeva	Kodlash – tafakkur va dekodlash jarayonining bog‘liqligi xususida	5
2.	D. N. Yuldasheva	Maktab partasida o‘tirgan bolalarimizning barchasi tilshunos bo‘lishi kerakmi?	7
3.	L.Sh.Bozorova	Adabiyot fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar	11
4.	L.Ergasheva	Mahmudxo‘ja Behbudiy – serqirra ijodkor	14
5.	S. T. Halimova	Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarida kreativ fikrlashni shakllantirishning ayrim usullari	16
6.	U.M. Hamroyev	Abdulla Oripov ijodini 9-sinfda o‘rgatish usullari	19
7.	U.M. Hamroyev	Zulfiya ijodini o‘rgatish usullari	25
8.	S. B.Hamroyeva	O‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion usullar	30
9.	D. Hayitova	So‘z qudrati	33
10.	D. Hayitova	Ekologik madaniyatni shakllantirishda adabiyotning o‘rni	35
11.	M. N. Ismoilova Sh. J. Shomurodov	Kompyuter vositasidan foydalangan holda konsentrizm tamoyiliga asoslangan ona tili va o‘qish ta‘limi mazmuni	38
12.	U. Kotibova	Adabiyot darslarida muammoli ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish	42
13.	G. R. Muqimova	O‘zbek tilida o‘simlik nomlarining leksikografik talqini	44
14.	O. R. Muqimova	Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ona tili va adabiyoti fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuv	51
15.	X. R. Narzullayeva	O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asari tahlili	57
16.	M.B. Olimova	O‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda lug‘atlarning ahamiyati	61
17.	M.B. Olimova	Chingiz Aytmatovning “Birinchi muallim” asarida tasvirlangan badiiy obrazlarga tavsif	64
18.	O. B. Muhabbat	O‘zbek tili leksikasining boyish manbalari. o‘z va o‘zlashgan qatlam mavzusining o‘tilishi	67
19.	D. Sh. Qurbonova	Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini shakllanishida badiiy matnlardan foydalanishning ahamiyati	70
20.	H.H Sa‘dullayeva S.Sh.Daniyarova	O‘quvchilar va aholi imloviy savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari	73
21.	M. H. Sharipova Sh. J. Shomurodov	Ona tili fanini o‘qitish uslublari	76
22.	M.Sayidova, G. Samiyeva, S.Barrayeva N. S.Saydaxmedova	Ona tilini o‘qitishda kompyuter texnologiyalarining o‘rni	79
23.	G. U. Komilova M. A.To‘rayeva	5-sinf ona tilidan innovatsion testlar	81
24.	M. N. Ismoilova	Adabiyot o‘qitishda virtual ta‘lim texnologiyalari –	86